

**PROFILAKTIKA INSPEKTORINING MA'MURIY HUDUDDAGI  
KRIMINOGEN VAZIYATNI O'RGANISH VA TAHLIL QILISH  
FAOLIYATINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**ALIBOYEV DOSTON SHAVKAT O'GLI**

*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Huquqbuzarliklar Profilaktikasi  
Faoliyati kafedrası Huquqbuzarliklar Profilaktikasi Faoliyati yo'nalishi  
bo'yicha ta'lim olayotgan 309-gurux kursanti*

*Annotatsiya. Profilaktika inspektorining ma'muriy hududdagi kriminogen vaziyatni o'rganish, tahlil etish faoliyati nomli bitiruv malakaviy ishi ma'muriy hududning kriminogen vaziyatiga ta'sir etuvchi omillarni ilmiy va amaliy o'rganishga bag'ishlangan ish hisoblanadi. Profilaktika inspektorining ma'muriy hududdagi ijtimoiy va kriminogen vaziyatni o'rganish va baholash bo'yicha faoliyatiga oid kriminologik huquqiy ta'limotlar, fikrlar qarashlar va ularni takomillashtirishni taqoza etuvchi omillar mantiqiy ketma-ketliklarda hozirgi kun talablaridan kelib chiqqan holda ilmiy tahlil qilinadi, tavsiflaydi hamda uni nazariy ta'minlash, takomillashtirish borasida ilmiy xulosa, taklif va tavsiyalar beradi.*

**Shartli qisqartmalar:**

IIO – Ichki ishlar organlari;

JIEM – Jazoni ijro etish muassasasi;

HPB – Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'limi;

MXTM – Maxalla huquq tartibot maskani;

PI – Profilaktika inspektori;

TSH – Tuman, shahar;

NQ – navbatchilik qismi;

QX – Quriqlash xizmati

PPX – Patrul- post xizmati;

MJTK – Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks;

HMQO – Huquqni muhofaza qiluvchi organlar;

FO'O'BO- Fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlari:

NNT – Nodavlat notijorat tashkilotlari; OAV – Ammaviy axborot vositalari.

Mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekistondagi kriminogen vaziyatga sharoit yaratuvchi omillar jamiyat ijtimoiy hayotining barcha sohalarida ko'plab uchrashi bilan birga ular bir-birini ko'chaytirib kelgan. Ushbu omillarning kriminogen vaziyatga ta'sirini tarixiylik qoidalariga amal qilgan holda ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Kriminogen vaziyatni o'rganish, mavjud kuchlar va vositalardan huquqbuzarliklarning profilaktikasi va uning sodir etilishi sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etishda foydalanilishi samaradorlikni oshiradi.

Profilaktika inspektori kriminogen vaziyatni tahlil qilish faoliyatining mohiyatini quyidagilarda ko'rish mumkin:

- kriminogen vaziyat, uni tahlil etish; kriminogen vaziyatni tashkiletuvchi omillar;

- kriminogen axborotlarni o'rganish;

- huquq-tartibot holatini aks ettiruvchi axborotlarni o'rganish vaularning maqsadi;

- huquqbuzarliklarni tahlil qilish; huquqbuzarliklar dinamikasini tahlil qilish; huquqbo'zar shaxsini tahlil qilish va hokazo.

Kriminogen vaziyatni o'rganishda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

- hududni tavsiflovchi ma'lumotlar (maydoni va uning o'ziga xosligi);

- xududda istiqomat qiluvchi aholini tavsiflovchi ma'lumotlar (qariyalar, yetuk yoshdagilar va voyaga etmaganlar soni);

- hududning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini tavsiflovchi ma'lumotlar (ish bilan ta'minlanganlik, ishlab chiqarish, korxonalar, tashkilotlarning mavjudligi);

- huquqbuzarliklarni tavsiflovchi ma'lumotlar;

- huquqbuzarlik sodir etgan va unga moyil shaxslarni tavsiflovchi ma'lumotlar;

- hududdagi jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish faoliyati sub'ektlarini tavsiflovchi ma'lumotlar.

Yuqorida sanab o'tilgan holatlar bo'yicha ma'lumot to'plash, ularni tahlil etish va ular asosida tegishli profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda uni amalga oshirish kerak bo'ladi. O'zbekistonning mustaqillik arafasidagi kriminogen vaziyati Sobiq Ittifoq davlatining parchalanishi bilan bog'liq ob'ektiv jarayon O'zbekistonda kriminogen vaziyatni yanada og'irlashtirish va murakkablashtirishga xizmat qiladigan va hal etish uchun o'zoq muddat talab etadigan muammo va qiyinchiliklarni yuzaga keltirdi.

Respublikamiz sobiq Prezidenti Islom Karimov ta'rificha Respublika iqtisodiyoti yagona transport va energetika tizimiga ega bo'lgan sobiq umumittifoq iqtisodiy makoni doirasida shakllandi va rivojlandi. U boshqa mintaqalar bilan xo'jalik aloqalarining chambarchas tuguni bog'langan bo'lib, ular yuzasidan o'zaro hisob-kitoblar rubl makonida amalga oshirilmoqda. Bu munosabatlarni jahon xo'jalik aloqalari bilan tegishli to'ldirmay o'zib qo'yish (shunday aloqalarni o'rnatish uchun o'zoq vaqt talab etiladi) ishlab chiqarish hajmlarining pasayib ketishiga, iqtisodiy ahvolning yomonlashuviga, ijtimoiy muammolarning keskinlashuviga olib kelishi mumkin va hozirdayoq shunga olib kelmoqda.

Yoppasiga pulning qadrsizlanishi, turmushning qimmatlashuvi, bir vaqtlar yagona bo'lgan moliya, pul-kredit tizimining barbod bo'lishi, tarkib topgan xo'jalik aloqalarining bo'zilishi O'zbekistonni og'ir ahvolga solib qo'ydi. Bundan tashqari, respublikada mavjud korxonalarining texnikaviy darajasi, chiqariladigan mahsulot sifati ishlab chiqarishni zamonaviy tashkil etish talablariga, jahon raqobatining qattiq talablariga mos kelmayotir.

Amalda barcha sohalarda texnologiya asbob-uskunalarini jismonan ishdan chiqqan, ma'naviy eskirgan va yangilashni talab qiladi. Respublikaning tabiiy resurslariga va ekologik muhitiga juda katta va ko'p jihatdan o'rnini to'ldirib bo'lmaydigan darajada zarar etkaziladi. Bu hol, o'z navbatida, aholi turmush darajasining pasayishiga olib keldi.

Ushbu jarayonlar oqibatida ko'pgina ishlab chiqarish korxonalarini xomashyo,

yonilg'i, ehtiyot qismlarini o'z vaqtida olmasdan, ishlab chiqarishni qisqartirishga, ayrimlari umuman to'xtatishga majbur bo'ldilar. Kishilarda shaxsiyatparastlik, g'ayriijtimoiy qarashlarni shakllantiruvchi, bu qarashlarning muayyan xatti-harakatlarda namoyon bo'lishiga ko'maklashuvchi yana bir salbiy jarayon – "ishsizlik" o'sib bordi. Bu esa, o'z navbatida, jamiyatning ijtimoiy tabaqalanishiga, ijtimoiy adolat bo'zilishining yana ham chuqurlashib borishiga, aholining ma'lum bir qismi o'z manfaatini amalga oshirish va ehtiyojlarini qondirishda noqonuniy yo'l tanlashiga olib keldi.

O'zbekiston sobiq SSSR tarkibida bo'lgan davrda jamiyat ijtimoiy hayotining barcha (iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy, tashkiliyboshqaruv, shuningdek jinoyatchilikka qarshi kurash) sohalaridagi kriminogen determinantlar jinoyatchilikning xususiyatlarga ega bo'lishini taqozo etdi. SHuni alohida qayd etish joizki, sobiq Ittifoq davlatida jinoyatlarning sabablari va sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar faqat mamlakat miqyosida o'rganilganligi bois kriminologiyaga oid va boshqa maxsus adabiyotlarda ushbu davr jinoyatchiligining sabablari va shartsharoitlariga ham shunday tor doirada umumiy tavsif berilgan.

Jinoyat – shaxsiy ma'naviy-psixologik asosga ega bo'lgan alohida turdagi ijtimoiy bo'zilgan xatti-harakat, deyish mumkin. Bu esa, jamiyatda sodir etilayotgan jinoyatlarning asosida yotgan shaxsdagi jamiyatga zid yo'nalishning ijtimoiy ildizlari nimada, uning shakllanishi va mavjud bo'lishi nima bilan bog'liq, degan savollarga javob berishni talab qiladi. Bu savollarga javob berish uchun esa uch toifaga kiruvchi, o'zaro bog'liq va doimiy aloqada bo'lgan, murakkab ierarxik xususiyatga ega hodisa, voqea va jarayonla birinchi guruhga jamiyat rivojlanishining umumiy qonuniyatlar hamda jamiyatimiz rivojlanishidagi xususiyatlar bilan bog'liq bo'lgan, har qanday g'ariijtimoiy xatti-harakatning asosida yotadigan shaxsiyatparastlik, umuminsoniy axloq va ma'naviyatga zid qarashlar, xulq va odatlarning saqlanib qolayotganini belgilab beruvchi hodisalar; ikkinchi guruhga alohida shaxs yoki bir guruh shaxslarning ma'naviy shakllanishi sharoiti bilan bog'liq hodisalar; uchinchi guruhga esa qarashlarning muayyan jinoiy xatti-harakatda namoyon bo'lishiga yordamlashuvchi, ya'ni jinoyat sodir

etilishining muayyan vaziyatlari bilan bog'liq holatlar kiradi.

Iqtisodiy-ijtimoiy omillar jinoyatchilik sabablari zanjirining dastlabki halqalari bo'lib, jinoyatchilik bilan ijtimoiy va shaxsiy ong orqali bilvosita bog'liqdir. Jamiyatdagi salbiy iqtisodiy omillarning jinoiy xatti-harakat bilan aloqadorligi ularning ijtimoiy va shaxsiy ongiga ta'sir qilib, ularda har qanday jinoyatning bevosita sababi bo'lgan umuminsoniy axloqqa, ma'naviyatga, huquqqa zid qarash, xulq va odatlarni shakllantirishi, jonlantirishi va mustahkamlashida namoyon bo'ladi. Shunday ekan, jinoyatchilik sabablarini tushuntirishda iqtisodiy omillarni psixologik omillardan keyin ikkinchi darajali qilib ko'rsatmasdan, balki jinoyatchilikning jamiyatda bo'lishini taqozo etadigan, alohida turdagi va muayyan jinoyatlarning sodir etilishini belgilab beradigan jamiyat ijtimoiy hayotining barcha sohalaridagi, asosan salbiy xususiyatga ega bo'lgan hodisa, voqea va jarayonlarning o'zaro bog'liqligini va ularning jinoyatchilik sabablari ierarxiyasidagi o'rnini aniq ko'rsatish kerak.

Profilaktika inspektori kriminogen vaziyatni taxlil etish takomillashtirishda jinoyatchilikni yuzaga keltiruvchi sharoit ham alohida e'tiborga loyiq. Jinoyatchilikning sharoitlarini talqin etishda o'ziga xos yo'nalishlar mavjud ekanligini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Jinoyatchilik va jinoyatlarning vujudga kelishida quyidagi ikki holat mavjud:

1. Oldindan shakllangan ijtimoiy holatlar sababning saqlanib qolganligi.

2. Jinoyatchilikning va jinoyatlarni yuzaga kelishiga ta'sir etuvchi xamda jinoiy oqibatlarni keltirib chiqaruvchi va jinoyat ko'rsatkichlarni oshib borishishga yul ochuvchi holatlar:

Birinchi guruhga mansub shartlar jamiyat a'zolari, alohida olingan shaxs ongida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'daniy, tarbiyaviy yo'nal ishlarda shakllangan dunyoqarashini ifodalaydi. Ikkinchi guruhga mansub shartlar esa jamiyatda jinoyatchilikning oldini olishni talab darajasida ta'minlanganligida uchraydigan xato va kamchiliklardir.

Jinoyatchilikning kelib chiqishda muhim rol o'ynaydigan sabab sharoitlar uchun ham bu holat "kriminogen determinantlari" deb e'tirof etilgan. Zotan har

qanday sharoitning o'zi jinoyatchilik sababsiz sodir bo'lmaydi.

Bugungi kunda Ichki ishlar organlari tizimi xalqimizning tinch va osoyishta hayotiy mamlakatimizning huquqiy demokratik davlat kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish yulidan izchil taraqqiy etishini ta'minlashning ishonchli kafolatiga aylanib boryaapti. Huquqiy– targ'ibotni saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurashning zamonaviy usul va vositalaridan foydalanilgan holda jamoat xavfsizligini ta'minlashning samarali tizimi hayotga tatbiq etilyati.

Profilaktika inspektorlarining maxalla faollari bilan hamjixatlikda aholi o'rtasida olib borayotgan targ'ibot-tushuntirish ishlari, fuqarolarning ijtimoiy ximoyasiga doimiy e'tibor qaratilayotgani shahar va qishloqlarimizda ijtimoiy muhit barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

#### **FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

- 1.Rahbariy adabiyotlar
- 2.Karimov I.A.O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T., 2011.
- 3.Karimov I.A. O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. – T., 1993. – B. 19–11.
- 4.Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. – T., 1992.
- 5.Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat,mafkura. –
- 6.Karimov.I O'zbekiston milliy istiqlol iqtisod siyosat mafkura. T - O'zbekiston 1996 y B-1
- 7.Prezident SH.Mirziyoev. Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib intizom vashaxsiy javobgarlik har bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi lozim. T-2017 y
- 8.Prezident SH.Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi.Toshkent-2018y
- 9.Prezident SH.Mirziyoev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qatiyat bilan davot ettirib yuksak marralarga erishamiz. T -2018 y
- 10.Qonun va normativ hujjatlar.
- 11.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T-2023 y.
- 12.O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi .
- 13.O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi "Huquqbuzarlik lar

profilaktikasi to'g'risida"gi qonuni. T-2022y

14.O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 2 apreldagi "Jazoni ijro etish muassasalaridan bo'shatilgan shaxslarga nisbatan IIOning ma'muriy nazorati to'g'risida"gi qonuni.

15.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Jamoat Xavfsizligi Konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida Farmoni, 29.11.2021 yildagi PF-27-son.

16.O'zbekiston Respublikasining IIVning 2017 yil 12 iyuldagi 151 sonli buyrug'i.T- 2017 yil

17.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning 2017yil 14-martdagi „Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2833-sonli prezident qarori.

18.O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 16 sentabrdagi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonuni.

19.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Haraktlar strategiyasi to'g'risida"gi 4947sonli farmoni.

20.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning 2021 yil 26 martdagi PF-6196-son "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish soxasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jixatdan yangi bosqichga ko'tarish chora tadbirlari to'g'risida"gi farmoni.

21.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning "Ichki ishlar organlarining Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish soxasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" gi 2021 yil 2 apreldagi PQ-5050-son

22.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 18 fevraldagi "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla instutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 5938-sonli farmoni